

**Qishloq xo'jaligi tizimida faoliyat olib borayotgan boshqaruv xodimlarini  
Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tayyorlash, qayta tayyorlash,  
bilim va malakasini oshirganlik yuzasidan**

**MA'LUMOTNOMA**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi "Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-228-son qarori 9.1-bandi va qaror ilovasining 14-bandida davlat organlari va tashkilotlari muntazam ravishda o'z xodimlarining "Virtual akademiya"da korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida malakasini oshirib borishlarini, shuningdek malakasini oshirib borish ishlarini ta'minlash vazifalari belgilangan.

Ushbu topshiriqqa asosan vazirlik markaziy apparati va tizim tashkilotlarida Huquqni muhofaza qilish akademiyasining "ProAcademy" masofaviy ta'lim portali negizida ishlab chiqilgan "Virtual akademiya" Elektron platformasida xodimlarni o'qitish ishlari amalga oshirilmoqda.

Xususan, 2026-yilning o'tgan davri mobaynida Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bilan xodimlarni o'qitish uchun:

markaziy apparatdan **21** ta xodimga (*shundan 1 ta xar uch yillik uchun, 17 ta ishga yangi kirgan xodimlar, 2 ta korrupsiyaviy xavf-xatar mavjud lavozimlarni egallagan xodimlar va 1 ta korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha INT xodimlari*) shartnomalar tuzildi, o'qitildi va sertifikatlar olindi.

Hududiy bo'linmalardan **423** ta xodimga (*shundan 396 ta xar uch yillik uchun, 11 ta ishga yangi kirgan xodimlar, 10 ta korrupsiyaviy xavf-xatar mavjud lavozimlarni egallagan xodimlar va 6 ta korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha INT xodimlari*) hamda tizim tashkilotlardan **279** ta xodimga shartnomalar tuzildi (*shundan 254 ta xar uch yillik uchun, 2 ta ishga yangi kirgan xodimlar, 19 ta korrupsiyaviy xavf-xatar mavjud lavozimlarni egallagan xodimlar va 4 ta korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha INT xodimlari*), o'qitish ishlari amalga oshirildi.

Hozirgi kunda "Virtual akademiya"da o'qitish uchun Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bilan **3** ta tashkilotning **111** nafar xodimi bilan o'qitish ishlarini amalga oshirish uchun shartnoma tuzish ishlari amalga oshirilmoqda.

Mazkur yo'nalishda tegishli ishlarni amalga oshirilishi davom ettirilmoqda va belgilangan muddatlarda расмий сайтдаги маълумотлар янгиланиб борилади.

**Korrupsiyaga qarshi  
kurashish bo'limi boshlig'i**



**Sh.Teshaboyev**  
09.06.2026 yil.